

O'ZBEKISTONDA OPERA SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

Akbarova Oliyaxon abdurusul qizi

7-musiqaga ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi.

Annotatsiya: *mazkur maqolada opera san'atining o'zbekistonda rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *opera janri, Italyan operasi, Neopol operasi, O'zbek operasi, opera buffa.*

HISTORY OF DEVELOPMENT OF OPERA ART IN UZBEKISTAN

Akbarova Oliyaxan

A teacher of 7-music specialized boarding school.

Abstract: *This article discusses the development of opera in Uzbekistan.*

Key words: *opera genre, Italian opera, Neopolitan opera, Uzbek opera, opera buffa.*

Opera lotincha –mehnat mahsuli, musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma janr bo'lib, o'zida bir necha san'at turlarini mujassam etadi.Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit saxnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ularni orasida asosiy o'rinni egallaydi.Operaning adabiy asosi –librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavlantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi.Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini o'zaro bog'lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Turli vokal ansambl, duet, trio va boshqalar qaxramonlarning o'zaro munosabatlari, dramatik voqelar o'z aksini topadi. Xor roy berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq xayoti lavhalari gavdalanadi.Operada orkestr ham kata o'rin egallaydi. Vokal shakllariga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qism (antrakt, uvetyura, introduksiya va boshqalar)da vaziyatning mazmunini ochib beradi. Operaning tuzilishini uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab an'analari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq. Opera san'atining alohida turi sifatida XVI asr oxirida florensiya (Italiya)da yuzaga kelgan. Jacopo Perining «Dafne» (1598) va «Euridice»(1600) asarlari. Opera keyinchalik yevropaning boshqa mamlakatlarida tarqalib, tarixiy rivoji davomida turli hillariga ega bo'ldi. Fransuz «lirik tragediyasi» (Jean –Baptiste Lully, Jean- philippe) va katta opera (Louis Aubert, Giacomo Meyebear), italyan opera seriya jiddiy opera (Alessandro Scarlatti va neopolitan opera maktabi) vs Buff opera (Giovanni Battista Pergolesi, Giovanni Paisiello, Domenico Cimarosa), nemis zingshpeli (I Hiller,Wolfgang Amadeus Motsart va boshqalar) ingliz ballada operasi (J pepush), ispan sarsuela va tonadilyasi (V.Garsiya), va boshqaXVIII asar kompozitolik

ijodiyotida Sharq . xususan, o'zbek mavzulariga qiziqish kuchaygan vs Italiyada alessandro Scarlatti, Nicola Porpora ,Antonio Vivaldi. Gendel, Telema Amir Temurni o'peralarida bosh qahramon sifatida gavdalandirishgan. Mazkur qiziqish XIX- XX asrlarda yanada kengayib bevosita O'zbekiston bilan bog'liq asarlar Angliya, Armaniston, Belorussiya, Rossiya va boshqalarda ko'payadi.

XIX asrda romantik opera rivoj topdi, yangi milliy opera maktablari yuzaga keldi. XX asrda opera –oratoriya (A.Onegger), opera-kantata (K.Orf), kamer opera (F.Pulenk), qo'shiq operasi (K.Vayl), rok opera (E.L.Uebber) kabi yangi turlari yuzaga keldi. Opera janri modernizm yo'nalishlari ta'sirida rivoj topdi. K. Monteverdi, J. Rossini, J.Verdi, J. Puchchini, K.V.Glyuk, V.A.Motsart, R.Vagner, L.Kerubuni, SH.Guno. J. Vize. M.Musorskiy. P. CHaykovskiy, va boshqalar opera san'ati rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Opera buffa Italyan komik (hazilmutoiba) operasi. Hajmi kichikligi, o'zgarishlarda boy mazmuni, qahramonlarining kuguli va jonli harakatlari, musiqa uslubining milliy qo'shiqchilik an'alariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ilk namunalari operasera (jiddiy opera)ning ikki parda o'rtasidagi intermediya tarzida ijro etilgan. 18 asrning 30-yillarida J.Pergolezi ijodida paydo bo'lgan. Keyinchalik J.Pichchini, J.Paiziyello, D.Chimaroz va boshqa ijododa rivoj topgan.O'zbekistonda Buff opera an'analari negizida S.Yudakovning «Maysaraning ishi»-ilk o'zbek komik operasini yozgan.

Neopol opera maktabi 17-18 asrlarda neopolda shakllangan ijodiy maktab, kompozitorlar guruhi . Ilk yirik namoyondasi F.Provensale, boshlig'I A.Skarlatti. Neopol opera maktabi vakillari (kompozitorlar L.Vinchi, N.Porpora, L.Leo, N.Lomelli, T.Traetta va boshqa libretto mualliflari A.Dzeno, P.Metastazio) operaning jiddiy (opera seria) va hajviy (opera buffa) turlari shuningdek, ariya, uvertyura, rechitativnit tugal ko'rinishini belgilab berishgan. Ular tarixiy afsonaviy, antiksyujetlarda asarlar yaratib, sharq (hind, arab, fors) mavzulariga ham murojaat qilishgan, xususan, Sohibqiron Amir Temur qiyofasini o'z operalarida gavdalandirganlar. Neopol opera maktabi tamoyillari G.Gendel, I.Xasse va boshqa opera ustalari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Yurtimiz teatr san'atini nraunaq toptirish, uning o'ziga hos an'alarini asrab avaylash va yanada boyitish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda Mamlakatimizning barcha hududlarida yangi san'at maskanlari qurilib foydalanishga topshirilmoqda. Ayni paytda yangi ijodiy loyihalarni qo'llab quvvatlash, san'atkorlar mehnatini e'zozlash, teatr sohasi uchun malakali mutaxasislarni tayyorlash doimiy e'tiborda. Keyingi yillarda mamlakatimizda san'at va madaniyat, xususan, klassik opera va balet san'atiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbek operachilari jahonning qator nufuzli tanlovlarida muvaffaqiyatli ishtok etish bilan bir qatorda, o'zlarining yuksak san'atlari va mahoratlarini namoyish etib, e'tirofga sazovor bo'lib kelishmoqda. Bugungi kunga kelib yurtimizda xalqaro opera san'ati festivallari o'tkizilib kelinmoqda. Bu esa milliy opera san'atini rivojlantirish yuzasidan yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlimishlar bilan san'at muxlislarini kengroq tanishtirish, bu boradagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ijodiy muloqotni yanada kengaytirish imkonini beradi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

O'zbekistonda opera janri o'zbek mushkeli dramasiining ruvoji asosida, shuningdek, chet –el mumtoz operasiining ta'sirida yuzaga kelgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Toshkentga bir nechta (gruzin, italyan, tatar, rus, ozarbayjon) opera truppalari gastrolga kelgan. 1918- yildan Toshkentda rus opera teatri o'z faoliyatini boshlagan. 1929 yilda M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri ishga tushdi. Uning repertuari, asosan, musiqali dramalardan iborat bo'lgan. Mazkur teatr saxnasida o'zbek tilida qo'yilgan birinchi operalar «ER-Targ'in» (Y.Brusilovskiy) va Nargiz (M.Magomayev)dir. Ozbek opera va balet truppasi O'zbek musiqali teatri zaminida yuzaga kelib, 1939-yil S.Vaselinko va M.Ashrafiyning «Bo'ron» operasi bilan o'z faoliyatini boshlagan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompozitorlarining ijodiy hamkorligi natijasida hamda O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi ijodida rivoj topgan. Shu davrda o'zbek tilida jahon mumtoz opera namunalari (J.Bizening «Karmen», CHaykovskiyning «Yevgeni onegin» va boshqalar) ham sahnalashtirildi. Keyinchalik o'zbek kompozitorlarining afsovaiy romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari paydo bo'ldi. «Dilorom», «Shoir qalbi» (M.Ashrafiy), «hamza» (S.Boboyev), «Xorazm qo'shig'i» (M.Yusupov) va boshqa birinchi o'zbek hajviy operasi «Maysaraning ishi» (S.Yudakov)bo'lib bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida qo'yilgan. «Yorilyosh»(S.Boboyev) birinchi o'zbek bolalar operasidir.

1970 – 1980 – yillari o'zbek kompozitorlari opera janrini mavzu jihatidan boyitishdi. Shu davr ichida tarixiy-« mangulik » (U.Musayev), «Fidoyilar», «Sadoqat», « Sug't elining qoploni», « Zebunnisi», «Alisher Navoiy», shuningdek kamer operalar va boshqa operalar sahnalashtirildi. Mustaqillik davri o'zbek operalarida janr talqini, mavzu va mazmun doirasida yanada kengaytirilib boyitildi. Jahon mumtoz adabiyoti (N.Zokirovning Shakespearetragediyalari asosida yaratilgan « Hamlet » va «Makbet» opera dilogiyasi), hozirgi kunda zamon ijtimoy muammolari opera janrini keying rivojini ,elgiladi. Mazmunni talqin qilishda asosiy urgu' milliy hamda umumbashariyma'naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratildi. Operaning asosi yakka kuylashdan iborat bo'lib, ansambl va xorlar kam o'rin egallaydi, Shunday qilib rus va o'zbek kompozitorlarining hamkorligida yaratilgan birinchi «Bo'ron» va «Layli va Majnun» o'zbek musiqali teatri keying rivojiga asos bo'ldi. Zamonaviy professional san'atning murakkab janrlarini o'zlashtirishga yordam berdi. O'zbek musiqali teatri o'zining o'n yillik faoliyati davomida musiqali etnografik ansambllardan musiqali nomerlarga ega dramatik spektakllar orqali musiqali drama hamda undan operagacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. O'zbek opera san'atining turmush sharoitlariga ko'ra, zamon talablariga asosida asta sekinlik bilan musiqali drama ildizida o'z rivojini topdi. O'zbekistonda opera san'atining vujudga kelishi, uni rivojlanishida rus musiqali madaniyatining alohida hissasi borligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Kompozitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Glier, A.Kazlovskiy, G.Mushel va boshqalar o'zbek musiqali san'atining turli janrlarida, jumladan, opera janrida ham ijod qilganliklari sababli, o'zbek opera san'atini yana ham boyiganini

ko'rishimiz mumkin. O'zbek operalarining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo'lib, respublikamizning madaniy rivojiga yana bir kata qadam hisiblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пеккер Я. «Узбекская опера» Москва, 1984.
2. Murodova.D «Mustaqillik davri o'zbek kompozitorlik ijodiyoti to'g'risida- musiqa ijodiyoti masalalari» Toshkent,2004.
3. Jabborov. A «O'zbekiston bastakorlari musiqashunoslari» Toshkent, 2004.
4. Rustam Abdullayev «o'pera dramaturgiyasi» Toshkent, 2007.
5. Rauf Qodirov «Ommabop musiqiy glossariy» Toshkent, 2007.
6. T.Y.Solomonova «O'zbek musiqa tarixi» Toshkent, 1981.

